



## TARJIMADA SO'Z TANLASH MASALASI YOKI BADIY TARJIMADAGI MUAMMOLAR

Xurulboyev Shukrullo Abdullajonovich<sup>1</sup>, Abduvoitov  
Ravshanbek Alijonovich<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Andijon mashinasozlik instituti "O'zbek tili va adabiyoti"  
kafedrası katta o'qituvchisi,

<sup>2</sup> Andijon mashinasozlik instituti "O'zbek tili va adabiyoti"  
kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812779>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-Dekabr 2021

Chop etildi: 20-Dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*tarjima, so'z, so'z  
birikmasi, sinonim,  
uchinchi til, predmet, asli  
til, yengil, asli til,  
qiyoslash, xulosa.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada jahon adabiyoti xususan Angliya va Amerika adabiyotidan o'zbek tiliga ikkinchi til orqali qilingan tarjima asarlarida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar haqida so'z boradi va ularni bartaraf etishga oid fikr va mulohazalar ilmiy jihatdan ko'rsatib o'tiladi. Yosh, bolajak tarjimonlarga chet el adabiyotidan tarjima qilayotganda nimalarga e'tibor berish kerakligi va qanday malaka va ko'nikmalarni hisobga olib qilishlari kerakligi tavsiya qilingan.*

**Usullari.** Ushbu maqolada biz qiyoslash, lingvistik tahlil qilish, kompetent yondashuv va ona tiliga tarjima usullaridan foydalandik. Taqqoslash asosida tushunchani umumlashtirish va aniqlashtirish mavjud.

**Natijalari.** Qiyoslash orqali Angliya va Amerika adabiyotidan o'zbek tiliga ikkinchi til orqali qilingan tarjima asarlarida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar ko'rsatilib tahlil qilingan, asliy tildan ona tiliga to'g'ridan-to'g'ri qilingan tarjimaning xususiyatlari ochib berilgan. Tarjimon biror bir badiiy asarni o'z ona tiliga tarjima qilayotganda nimalarga e'tibor berishi, qanday lingvistik omillarga e'tibor qaratishi kerakligi uqtirib o'tilgan.

**Xulosa.** Xorijiy tildan ona tiliga biror bir badiiy asarni tarjima qilishda avvalo tarjimondan o'sha ikkala tilni ham

mukammal bilish talab qilinadi. Shu xususiyatlarni inobatga olgan holda ikkala tilning ham lisoniy va grammatik xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki vositachi tilda ro'y bergan xato va kamchiliklar uchinchi tilga ham ko'chib asliyatning ohori to'kilishiga olib keladi.

### Kirish.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda amalga oshirilgan olamshumul muvaffaqiyatlar va rejalashtirilgan ulug'vor tadbirlar tilshunoslar, tarjimonlar va chet tili o'qituvchilari oldiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Qolaversa 2012-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori e'lon



qilindi. Bu qaror xalqimizning chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'rganishi yo'lida tashlangan dadil qadami bo'ldi.

Barchamizga ma'lumki, jahon adabiyotining noyob durdonalari bizga "tarjima" otlik qudratli qurol yordamida vositachi til-rus tili orqali yetib kelgan. Va bu jarayonda ulug' ustozlarimiz igna bilan quduq qazib jonbozlik ko'rsatganlar. Birgina ustoz Ibrohim G'afurovning rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan asarlarini ("Chol va dengiz", "Alvido qurol", "Jinoyat va jazo", "Buzrukning kuzi") yodga olish kifoya. Biz ushbu tarjimalarni mukammal va shohona tarjimalar deb qabul qilamiz, ular xususida biror bir so'z aytishga ojizimiz va bunday mardonavor xizmatlar oldida bosh egamiz. Lekin shuni zinhor yoddan chiqarmaslik kerakki, og'izdan og'izga o'tgan rivoyatning ishonchililigi putur yetganidek vositachi tilda ro'y bergan xato va kamchiliklar uchinchi tilga ham ko'chib asliyatning ohori to'kilishiga olib keladi.

Plexanov tarjima qilishning uch asosiy shartini ko'rsatgan edi:

1. Asar qaysi tilda yozilgan bo'lsa, o'sha tilni mukammal bilish;
  2. Asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo'lsa, o'sha tilni mukammal bilish;
  3. Tarjima qilinayotgan asarda qanday predmet to'g'risida gap borsa, o'sha predmetdan xabardor bo'lish;
- Ana shu uch asosiy shartga rioya qilinmagan bo'lsa, demakki, tarjima qilaman deb ovora bo'lishning hojati yo'q.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tarjima tanqidchiligi ham ancha jonlandi. Tarjima asarlariga o'z vaqtida baho berishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Lekin chet el adabiyoti,

jumladan ingliz adabiyotidan tarjima qilish ishlari matbuotda yetarlicha yoritilyapti deb bo'lmaydi. Ko'plab tarjima asarlari borki ularning sifati to'g'risida shu paytgacha biror narsa deyilgan emas yoki ayrim asarlar tarjimasi haqida so'z yuritilgan bo'lsa ham ular chuqur tahlil etilmagan.

Angliya va Amerika adabiyotidan qilingan tarjima asarlarida ko'plab yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar asosan nimalardan iborat? Bu o'rinda tarjimada milliylikni ifodalash va frazeologizmlar masalasiga to'xtalmasak ham bo'ladi. Tarjimonlarimiz yo'l q'oyib kelayotgan kamchiliklardan biri va eng jiddiysi so'z tanlash masalasi bo'lib qolmoqda. Bu asosan, tarjima tilida sinonimlarni yaxshi farqlamaslik, asliy tilda esa omonimlarga yaxshi e'tibor bermaslik va ko'p ma'noli so'zlarning barcha ma'nolari har ikki tilda mos kelish-kelmasliklari masalasi bilan hisoblashmaslik oqibatida kelib chiqmoqda. Matn tarkibida qo'llanilgan ko'p ma'noli leksik yoki frazeologik birlikning chinakam ma'no va funktsiyasi u foydalanilgan vaziyat, kontekst yordamidagina oydinlashadi. Badiiy tarjima va kontekst masalasi tarjimashunoslikning muhim sohalaridan bo'lib, bu muammo hali atroflicha yoritilgan emas.

Sinonimiya masalasi tilshunoslikda mukammal o'rganilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, ayrim tarjimonlarimiz bunga e'tiborizlik bilan qaraydilarki, uni beixtiyor nazardan qochiradilar. Ba'zi tarjimonlar esa sinonimlarni bir-birlarining o'rinlarini to'liq qoplay oladigan ekvivalent so'zlar gruppasi deb tushunadilar. Bu esa mutlaqo noto'g'ri. Sinonimlar ayni predmet yoki hodisani ifoda qilsalarda, hech qachon bir-



birlarining o'rinlarini to'liq bosa olmaydi, chunki ular ma'no ottenkalari jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladilar.

Atrofimizni o'rab turgan dunyo turli xil ranglardan tashkil topgan mavjudotlardan iborat va ularning har biri turli xalqlarda turlicha ma'no kasb etadi. Rang dunyo ob'yektining asosi va ko'rish hissi sifatida qabul qilinadi. Masalan Xitoyda oq rang to'y uchun mos kelmaydigan rang bo'lib, u motam rangidir. Agar kelin to'y uchun oq nikoh ko'yagini tanlasa, uning ota-onasi unga shubhasiz turmushga chiqishga ruxsat bermaydi. Hindistonda, hatto xristian to'ylarida agar kelinlar oq ko'ylak kiyishsa, u odatda boshqa biror xil rang bilan birga aralashtiriladi. Agar turmushga chiqqan ayol boshqa rang qo'shilmagan oq ko'ylak kiysa, bu uni baxtsizlik va bevalik kutayotganini bildiradi. Boshqa xalqlarda esa oq rang sofdillik, poklik, beg'uborlikni bildiradi. Xitoy madaniyatida ranglar ustida izlanishlar olib borilganda, ba'zi bir ranglar qarama-qarshi ma'nolarga ega ekanligi kuzatiladi. Misol uchun ko'k rang bir vaqtning o'zida ham motam ma'nosini ham umid, ishonch ma'nosini bildiradi. Siyoh rang ham motam belgisi bo'lib, ijobiy ma'noga ham ega.

Badiiy adabiyotlarda ranglarning tarjimasida adekvat tarjima emas balki kontekstual tarjimadan foydalanish kerak. Ranglar ayniqsa badiiy adabiyotning she'riyat janrida juda ko'p ishlatiladi.

Har bir so'z o'zi istifoda etiladigan tilda shunday ma'nolarni anglatadiki, boshqa tildagi shunga muqobil so'z o'sha ma'nolarni qisman, bir qadar yoki bir taraflama qoplasa-da, ko'pincha jiddiy farq qiladi. Masalan, inglizcha "white", ruscha

"белый", o'zbekcha "oq" so'zlarini olaylik. Ma'lumki oqlik, ravshanlik, yorug'lik hamma xalqlarda ham qoralik, zulmat, baxtsizlikka zid o'laroq, ezgulikni anglatadi. Lekin bundan hamma tillarda ham "oq" ma'nosida qo'llanuvchi so'zlar bir-biriga aynan muvofiq keladi, deb bo'lmaydi.

Xalqlarning turli tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda yashashlari natijasida ularning ongi, dunyoqarashlari va axloqida turli maxsus tushunchalar, norma va tamoyillar qaror topadiki, bularning hammasi tilda ham bevosita aks etadi. Aytaylik, tropik iqlim sharoitida yashovchi xalqlar qor nimaligini tasavvur qila olmas ekanlar, ularning tilida "qorday oppoq" degan qiyosning ham yo'qligi o'z-o'zidan ma'lum.

Matn tarkibida qo'llanilgan ko'p ma'noli rangni bildiruvchi leksik va frazeologik birlikning chinakam ma'no va funktsiyasi u foydalanilgan vaziyat, kontekst yordamidagina oydinlashadi. Binobarin tarjima amaliyoti dalillarning kontekst asosida umumlashtirilishi muayyan ob'yektiv nazariy xulosalarga olib kelishi bilan birga tarjimachilik ravnaqiga ham so'zsiz ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, rang ma'nosini bildiruvchi so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganimizda kalka yoki kontekstual tarjima usullaridan foydalanamiz

Ayrim tarjimonlar asliyatdagi so'zni tarjima tilidagi muqobili bilan almashtirar ekan, kontekst mazmuniga e'tibor qilmaganlari holda uni lug'atda uchragan dastlabki so'zning tarjimasini bilan berib qo'ya qoladilar. Natijada, kerakli so'z tushurib qoldirilib, uning o'rniga omonim



soʻz ishlatiladi. Bu esa tarjima adekvatligiga putur yetdi degani.

Fikrimizning tasdigʻi sifatida ushbu misolga yuzlanaylik. Ingliz tilidagi “light” soʻzi rus va oʻzbek tillariga quyidagicha oʻgiriladi: 1) light- светлый, яркий (yorugʻ, yorqin, yaltiroq, rangi ochiq). 2) light-лёгкий (yengil). Ayni soʻz E. Voynichning “Soʻna” romanida ishlatilgan boʻlib, rus tarjimonlari uni omonim bilan almashtirib qoʻygan, yaʼni “светлый”, “яркий” soʻzlari oʻrnida “лёгкий” soʻzi ishlatilgan.

1. “I will go home and fetch that riding – cloak of mine, Rivares. I think you will be less recognizable in it than in your light suit” ( “The Gadfly”, p.236)
2. “Я пойду домой и принесу вам свой дорожный плащ, Риварес. В

нём вас гораздо труднее будет узнать, чем в этом легком костюме” (“Овод”, стр. 168)

3. “Uydan yoʻl plashchimni olib kelib beray sizga, Rivares. Bu yengil kostyumdan koʻra unda sizni tanishroq qiyin boʻlar” (“Soʻna”, 219-bet)

Demak oʻz-oʻzidan maʼlumki, rus tarjimoni yoʻl qoʻygan xato “Soʻna” asari tarjima qilingan boshqa sobiq ittifoq davlatlari tillarida ham takrorlangan. Bunday misollarni koʻplab keltirish mumkin. Ushbu kabi nuqsonlarga albatta, oʻzbek tarjimonlarining aybi bilan yoʻl qoʻyilgan emas. Lekin bu degani oʻzbek tarjimonlari xato qilmayapti ekan degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. A. Karimov's decree “On measures to further improvement of foreign language learning system”. December 10, 2012
2. Layonz DJ. Osnovi teoreticheskoy lingvistiki, M., Progress, 1976
3. Salomov G'. Til va tarjima, Toshkent, Fan, 1996
4. Musayev Q. Tarjima nazariyasi, Toshkent, 2004
5. Saussure, F. (1990). *Course in general linguistics*, Charles Bally (Ed.), translated and annotated by Roy Harris, London: Duckworth.
6. David L. Chiesa, Ph.D. (Ed.), Ulugbek Azizov, Ph.D., Svetlana Khan, Klara Nazmutdinova, Komila Tangirova “Reconceptualizing language teaching: an in-service teacher education courses in Uzbekistan”.
7. Brown, H. D. (2000). Principles of language learning and teaching (4th ed.). New York: Longman.
8. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR): <http://www.coe.int/t/dg4/linguistic/cadre.en.asp>